

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN GERMAN TILLARI FAKULTETI

ISPAN VA ITALYAN TILLARI KAFEDRASI

SHODMONOVA NARGIZA SHAMSIDDIN QIZI

ZOOMORFIZMLAR VA ULARNI QIYOSIY TIPOLOGIK O'RGANISH

5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (ispan tili)

ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

taqdim etilayotgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“HIMOYAGA TAVSIYA
ETILDI”**

“Ispan va italyan tillari” kafedrası
mudiri_____

dots. A.B.Begmatov

2018 yil, “_____” “_____”

ILMIY RAHBAR

dots. A.B.Begmatov

Samarqand– 2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Birinchi bob. ZOONIMLARNING LEKSIK MA’NOSI VA ZOOMORFIZMLARNING SEMANTIK STRUKTURASI	
1.1. Asosiy tushunchalar va atamalar.....	8
1.2. Zooleksika tadqiqotlarining qisqacha ko’rinishi	9
1.3. Atamalarida motivatsiya tushunchasi	11
1.4. Dunyoning til manzarasi tushunchasi va uni o’rganish prinsiplari.....	13
Ikkinchi bob. ISPAN, FRANSUZ VA O’ZBEK TILLARIDAGI ZOOMETAFORALAR VA ZOOO’XSHATISHLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI	
2.1. Hayvon nomlarining iboralarda qo’llanishi.....	17
2.2. Qiyoslash jadvallari xususida.....	19
2.2.1. Qiyoslanayotgan tillarda mammamorf metafora va o’xshatish.....	21
2.2.2. Qiyoslanayotgan tillarda serpentomorf metafora va o’xshatish.....	32
2.2.3. Qiyoslanayotgan tillarda omitomorf metafora va o’xshatish.....	36
2.2.4. Qiyoslanayotgan tillarda entomorf metafora va o’xshatish.....	40
2.3. Jadvallar taqdimoti bo’yicha ayrim fikrlar.....	43
2.3.1. So’zlar va xususiyatlar.....	43
2.3.2. Xususiyatlar va iboralar.....	43
2.4. O’xshatish: leksika va semantika.....	44
2.4.1. Qiyoslanayotgan tillarda zoonim - bitta so’z.....	44
2.4.2. Qiyoslanayotgan tillarda zoonim - ko’p so’z.....	46
2.5. Morfologiya va sintaksis (frazalar, otlar, sifatlar, fe’llar, ravishlar).....	46
Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	54

Kirish

Respublikamizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar va yuqori malakali intellektual barkamol avlodni tarbiyalashda davlat siyosatining o'rni va rolini xalqaro jamoatchilikning o'rganishi va tanishishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan "Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash - mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilishida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov so'zlagan nutqlarida ta'kidlanganlaridek: "...oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz - mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, o'nib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir"¹.

Ma'lumki, turli til jamoalari vakillarining nutqiy muloqotida har bir xalqning va uning tilining ma'daniy-milliy o'ziga xosligini tasvirlovchi universal xususiyatlar ham, etnik o'ziga xos qonuniyatlar ham aks etadi. Ularni o'rganish keyingi paytda olimlarning e'tiborini yanada ko'proq jalb qilib kelmoqda. Natijada tilni ma'daniyat modeli sifatida tushunishga asoslangan lingvistik nazariyalar (etnosemantika, etnopsixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik va boshqalar) paydo bo'lmoqda.

Tadqiqotimizning ob'ekti bo'lmish zooleksikada, tildan tashqaridagi borliqni idrok etish xususiyatlari, tilning har qanday boshqa sohasiga qaraganda, yanada oydinroq aks etadi. Chunki har xil tillarda hayvonlarning obrazlariga (inson tomonida borliqni o'zlashtirish va uning atrof muhitga ta'sir etishi nuqtai nazardan), bir qarashda, butunlay asoslanmagan va bazan narsalarning ichki bog'lanishlariga hatto zid bo'lgan xususiyatlar ato qilingan bo'ladi.

Bu obrazlar va fantaziyalar inson ongining qa'ridan, uning e'tiqodidan va afsonasidan kelib chiqqan.

¹ Каримов И.А. Билимли ва интеллектуал баркамол авлодни тайёрлаш - мамлакатни барқарор ривожлантириш ва модернизациялашнинг энг муҳим омилли - "Халқ сузи", 18 февраль, 2012.

Hayvonlarning roli inson hayotida hamma vaqt, ayniqsa insoniyat taraqqiyotining ilk davrida, odamlar va hayvonlar tabiiy qo'shnichilikda birga yashagan paytlarda, nihoyatda katta bo'lgan. Hayvonlar ijtimoiy ierarxiyaga kiritilgan edi, odamlar jamiyatida bu jamoaning hayvonlardan kelib chiqqanligi to'g'risida g'oyalar yashagan, hayvon odamning o'ziga xos xudosi sifatida tasavur qilingan.

Hayvonat dunyosi haqida bilimlarning insonni tavsiflashning obrazli vositalari tizimiga kiritilishi, qiyoslash vositasida insonning o'zi haqida bilimlarining kengaytirish va chuqurlashtirish, tabiat olamidagi realiyalarning obrazlar bilan o'xshashligini izlab topish - bu alohida ob'ekt sifatida odamning o'zi to'g'risidagi inson bilimi taraqqiyotining qonuniy bosqichidir. Antropotsentrik g'oya, hozirgi kunga kelib, tilshunoslikda hamma e'tirof etgan va hatto markaziy g'oya bo'lib qolmoqda, chunki til qurilishining har xil tavsiflarini aniqlashning o'zi lingvistik tahlilning endi sof maqsadi bo'la olmaydi. Til, tilshunoslarning fikriga ko'ra, insonning faqat individual miyasida, faqat qalblarda, har xil tillar uyushmalarini tashkil qiluvchi shaxslarning faqat psixikasida mavjud bo'ladi.

Odamning zootasvirlari, u yoki bu hayvon to'g'risidagi obrazli tasavur asosida paydo bo'la turib, baholovchi obrazlar - mazkur etnos uchun xarakterli bo'lgan etalonlar tizimi orqali tillarning milliy o'ziga xosligini eng aniq tarzda va bevosita aks ettiradilar.

Mazkur bitiruv malakaviy ish odam faoliyatining turli qirralarini tavsiflash uchun ispan, fransuz va o'zbek tillarida foydalanadigan zoonimlarning etnosemantik qiyosiy tahliliga bag'ishlangan.

Tadqiqotning ob'ektini ispan, fransuz va o'zbek tillaridagi hayvon nomlari - zoonimlar tashkil qildi.

Tahlil predmetini mazkur leksikaning ko'chma-obrazli ma'nolari tashkil qildi. Ko'chma-obrazli ma'nolar yoki zoomorfizmlar tilda har xil funksiyalarni bajarishi va o'ziga xos semantik yuklamaga (odamning rang-barang sifatlari, harakatlari, holatlarini tasvirlashi, undalma, erkalash, invektiv va boshqa

funksiyani bajarishi) ega bo'lishi mumkin.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, zooleksika mazkur ishda nafaqat semantikaning xususiyatlari tadqiq etish bilan, balki qiyoslanayotgan tillarning milliy ma'daniy o'ziga xos tamonlarini ham aniqlash bilan bog'lanadi. Tadqiqotning mazkur aspektlari tilning hozirgi holati va qo'llanishi uchun juda dolzarbdir. Hozirgi davrda tillararo muloqotda, suhbatdoshga murojaat qilishda, zoomorfizmlardan o'rinli foydalanish juda muhim sanaladi. Shu boisdan, uchchala qiyoslanayotgan tillarda zoonimlarning yasallish imkoniyatlarini o'rganish ham juda dolzarb sanaladi.

Ishning maqsadi ispan, fransuz va o'zbek tillaridagi zoonimlarning semantik va funksional xususiyatlarini va ularning semantik va morfologik derivatlarini (zoomorfizmlarni va zoonim fe'llarni), ularning etnoma'daniy o'ziga xosligini hisobga olgan holda, aniqlash va qiyoslashdan iboratdir.

Oldimizga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish talab etiladi:

- a) zoonimlar leksik ma'nolarining o'ziga xosligi bilan bog'liq bo'lgan ayrim umumsemantik muammolarni ko'rib chiqish;
- b) qiyoslanayotgan tillarda zoomorfik semantikaga ega bo'lgan zoonimlarni aniqlab olish;
- d) qiyoslanayotgan tillarda mammamorf metafora va o'xshatishlarni semantik tizimlashtirish;
- e) qiyoslanayotgan tillarda serpentomorfizmlarning o'xshash va farq qiluvchi belgilarini ko'rsatish;
- f) qiyoslanayotgan tillarda omitomorfizmlarni tahlil qilish;
- g) qiyoslanayotgan tillarda entomorfizmlar tipik semalarini belgilash.

Belgilangan topshiriqlarni bajarish uchun quyidagi **metod va yondashuvlardan** foydalanildi: zoonimlarni tanlab olish bilan bog'liq leksikografik metod, qiyosiy tipologik metod, komponent tahlil metodi.

Malakaviy ishning ilmiy yangiligi ispan, fransuz va o'zbek tillarida odamlarni obrazli tavsiflash uchun qo'llanadigan zoomorfizmlarning belgilarini

aniqlash va tizimlashtirishdan iborat bo'ldi.

Ishning nazariy ahamiyati shundan iboratki, ishda birinchi bor keltirilgan zoomorfizmlar tilning leksik-semantik nazariyasiga, uchta til zooleksikasining etno-semantik o'ziga xosligi muammosini hal qilishga ma'lum bir ulush qo'shadi, hamda leksikologiya, leksikografiya, lingvokulturalogiya sohalarida semantik unversaliyalarni aniqlashda foydalanishi mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati. Tahlil natijalari chet tillarni o'qitish jarayonida, semantik va lingvokulturologik muammolarga bag'ishlangan bir qator maxsus kurslarni tuzishda foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari ko'p tilli zoometafora va zoonimlar xosliklar lug'atlarini tuzishda as qotishi mumkin.

Tadqiqot materiali. Zoonimlarning odamni tasvirlaydigan, ikkilamchi obrazli ma'nolarga ega bo'lgan zoonimlar ispan, fransuz va o'zbek tillarining leksikografik manbalaridan terib olindi. Misollarning umumiy miqdori 500 tadan ko'p.

Ishning strukturasi. Mazkur malakaviy ish kirish, ikkita tadqiqot bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar va lug'atlar ro'yxatidan iborat. Bibliografiyada keltirilgan 58 ta manbadan 29 tasi chet tillarda berilgan.

Ishning kirish qismida malakaviy ishning dolzarbligi asoslanadi, ishning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatiladi, maqsad va vazifalar shakllantiriladi, tadqiqot materiali va metodlar bayon etiladi.

Birinchi bob "Zoonimning leksik ma'nosi va zoomorfizmning semantik strukturasi" deb nomlanib, u to'rtta paragrafdan iborat. Bu bobda zooleksika tadqiqotiga bag'ishlangan ishlarga qisqacha ko'rinish beriladi va ishda uchraydigan tayanch tushunchalar va atamalarining mazmuni aniqlashtirib olinadi, hamda zoonimlar bilan bog'liq dunyoning til manzarasi va uni o'rganish prinsiplari bayon etiladi.

Ikkinchi bob zoonimlarning zoomorfizmlar bilan o'zaro aloqasi to'g'risidagi masalaga bag'ishlanadi, qiyoslanayotgan tillarda zoomorf tizimning o'ziga xos tomonlari bayon etiladi; semantik guruhlarini

shakllantiradigan va har xil antropotsentrik aspektlarni (masalan, tashqi ko'rinish, ruhiy holat, mehnatsevarlik va h.z.) aks ettiradigan zoonimlar bir-biridan ajratiladi, ta'riflanadi va qiyoslanadi. Bu bobda universal tavsiflar (tillararo ekvivalentlar)ni aniqlash maqsadida tillararo qiyoslash amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tillararo ma'no farqlarini aniqlash uchun zoomorfizmlarning kontrastiv ta'rifi beriladi.

Xulosada tadqiqot natijalari umumlashtiriladi.

I BOB. ZOONIMLARNING LEKSIK MA'NOSI VA ZOOMORFIZMLARNING SEMANTIK STRUKTURASI

Mazkur bobda zooleksikani sinxron aspektida tadqiq etgan ishlarning qisqacha ko'rinishi beriladi, tahlil jarayonida qo'llanilgan asosiy zooatamalar oydinlashtiriladi, zoonimning birlamchi nomlash sifatidagi semantik mazmuni va uning funksiyalari bayon etiladi. Bundan tashqari, zoonimning leksik-semantik varianti - zoomorfizmning lingvistik statusi tahlil etiladi. Shu bilan bog'liq holda zoometafora va zooo'xshatishning ayrim muammolari va zoomorfizmlar konnotativ mazmunining asosiy elementlariga tegishli masalalar ko'rib chiqiladi.

1.1. Asosiy tushunchalar va atamalar

Semantika bo'yicha ishlarda alohida atamalar va tushunchalami qo'llashda ayrim erkinliklar kuzatiladi. Masalan, ayrim ishlarda "semantik maydon" va "leksiko-semantik guruh" atamalari bir-birining o'rniga ishlatiladi: "hayvon nomlari" guruhi yo semantik maydon, yo leksik-semantik guruh tarzida aniqlanadi. Bundan tashqari, leksik-semantik guruh tarkibiga hayvon nomlarining barisini to'laligicha ham, ularning bir qismini ham kiritadilar. Masalan "gippologizmlar" (ot zotlarining nomlari)¹. Boshqa tadqiqotchilar hayvon nomlarini quyidagicha tasniflaydilar: makromaydon - "hayvonlarning nomlari", mikromaydon - mammalogik, ya'ni sut emizuvchi hayvonlarning nomlari; omitologik, ya'ni qush nomlari, insektologik, ya'ni hashorat nomlari, ixtiologik (baliq nomlari va suv hayvonlari), serpantologik (sudralib yuruvchilar, suvda va quruqlikda sudralib yuruvchi hayvonlarning nomlari)². Boshqa mualliflar foydalangan terminologiyada atamalar va tushunchalarning quyidagi ierarxiyasi kuzatiladi: faunizmlar - hayvonlarning asl nomlarini ham, sinanimalistik elementlarni (maaramoq, cho'pon va h.z) ham qamrab oluvchi eng keng tushuncha; animalizmlar - hayvonlarning nominativ va nominativ-yasama (еж, съежиться); zoosemizmlar, zoonimlar, zoologizmlar -

¹ Войтик Л.С. К вопросу о смысловой структуре слова (на материале лексико-семантической группы наименований животных): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Алма-Ата, 1974. - 39 с.

² Maloux M. Dictionnaire des proverbes, sentences et maximes, Larousse, Paris, 1960.

hayvonlarning to'g'ri nomlari, zoomorfik elementlar, zoomorfizmlar, zoobrazlar, zootavsiflar, zoonimik tipdagi antroponimlar, hayvon nomlarining odamga tushuriladigan ko'chma ma'nolari va boshqalar.

Mazkur malakaviy ishda quyidagi tayanch terminologiyadan foydalanildi: zoonim umumiy lug'at birligi sifatida qaraladi. U, bir tomondan, zoosemizmning "qiyofasi"ni (sut emizuvchilar, qushlar, baliqlar, hashoratlar va shu kabilar), ikkinchi tomonda, - zoomorfizmni, odamga tushadigan, uni har xil ko'rish burchaklaridan tavsiflaydigan va baholaydigan o'zining ko'chma, metaforik variantini qabul qilishi mumkin. Zoonimning bu leksik-semantik variantlari - zoosemizmlar va zoomorfizmlar - uning mazmun strukturasida birlashgan va bir vaqtning o'zida bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Hayvon nomlarining ko'chma qo'llanishini tadqiq etish bo'yicha chop etilgan so'ngi ishlarda bu terminga sinonim bo'lgan zoomorfik metafora (zoometafora) va zoomorfik tasvir (zooxarakteristika) atamaları tez-tez uchrab turadi. Keyingi termini biz tor ma'noda ham - bevosita zoomorfizmni anglatish uchun, keng ma'noda ham - zoomorfizmli tavsiflovchi gaplarni anglatish uchun ham qo'llaymiz. Bundan tashqari, zoobraz atamasidan assotsiatsiyalar va konnotatsiyalar tizimi bilan bog'liq holda foydalanamiz. Bunday assotsiatsiyalar va konnotatsiyalar til sohiblarida hayvonni ataydigan ma'lum bir leksema bilan bog'langanlar.

Demak, hayvonning asl nomi - zoosemizm (masalan, eshak) va zooxarakteristika, uning bazasida mavjud bo'lgan - zoomorfizm (eshak - odam haqida) tilning aynan bir leksik birligi - zoonimning variantlaridir. Qiyoslanayotgan tillarda bu variantlarning o'zaro nisbati, ulaming aniq semantikasidan qat'iy nazar, umuman olganda bir xildir. Ularning lingvistik tabiatidagi birlik shunda o'z ifodasini topadi

1.2. Zooleksika tadqiqotlarining qisqacha ko'rinishi

Leksikaning bu sohasiga bag'ishlangan ishlarning ko'rinishi shuni ko'rsatdiki, bu erda tadqiqotlar nisbatan keng taqdim etilgan va har xil tillarning va tilshunoslik aspektlarining materialini qamrab olgan. "Hayvon nomlari"

leksik - semantik guruhi asosan sinxron aspektida kuzatilgan. Zoonimlar va ularning yasamalarining semantik, soʻz yasaliş va pragmatik imkoniyatlari tadqiq etilmoqda.

Katta eʼtibor zoonim komponentli frazeologizmlarga qaratilmoqda¹. Bu ishlarda zoonim komponentli frazeologizmlar struktur - semantik va stilistik nuqtai nazarlardan oʻrganilgan. Oʻz navbatida, ispan tili materialida zoonim komponentli frazeologizmlarning komponent tarkibi ham oʻrganilgan². Muallif zoonim komponentli frazeologizmlarning har xil turlarini aniqlaydi, bu frazeologizmlarning qoʻllanish chastotasi va mantiqiy faolligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganadi. Frazeologizmlar-zoonimlarga yana bir qator tadqiqotlar bagʻishlangan³.

Zoomorfizmlarni tekstologik tadqiq etish, distributsiyasini tahlil qilish, hamda sinonimik va antonimik aloqalarini oʻrganish metodikasi rus olimlari tomonidan ishlab chiqildi⁴. Bundan tashqari, oʻz tadqiqotlarida yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar obrazli maʼnolarni leksikografik kodifikatsiyalash muammolarini ham muhokama qiladilar.

Zoonimlarning semantik variantlari, ularning predikativ-tavsiflovchi maʼno xususiyatlari ispan va oʻzbek olimlarining ham eʼtiboridan chetda qoldirmagan. Ular tillarni qiyoslash natijasida obrazli koʻchma maʼnolarining mos kelish darajasini turlicha koʻrinishda taʼriflaganlar. Masalan, uchta holat bir-biridan farqlanadi:

- 1) ekvivalent zoonimlarning koʻchma maʼnolari toʻliq mos keladi: «ane bourrique, baudet, asno, burro, eshak;
- 2) koʻchma maʼnolar qisman mos keladi: couleuvre, culebra, suv iloni;
- 3) koʻchma maʼnolar mos kelmaydi: mayda narkotik tarqatuvchisini ispan tilida camello (tuya), fransuz tilida esa fourmi (chumoli) deb atashadilar).

¹ Захидов Т. З., Мекленбурцев Р. Н. Природа и животный мир Средней Азии. Т. I. Позвоночные животные. - Ташкент: Укитувчи, 1969. - 428 с.

² Динец В.Л., Ротшильд Е.В. Домашние животные. Энциклопедия природы России. -М.: АБФ, 1998. - 512 с.

³ Брем А. Птицы: В 2 т. Т. 1. - М.: АСТ, 1999. - 688 с.

⁴ Гутман Е.А., Черемисина М.И. Названия животных в составе сравнений (на материале русского и французского языков) // Вопросы языка и литературы. - Вып. IV. Ч. I. - Новосибирск, 1970. - С. 253-266.

Har xil tillardagi zoonimlarning ko'chma ma'nolari o'rtasida mos kelmaslikning boshqa holatlari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bunda quyidagi holatlar ta'kidlanadi:

- 1) bir tilda hayvon nomi odamga nisbatan, boshqasida - predmetga nisbatan qo'llanadi;
- 2) bir tilda metaforik ma'no mavjud, ikkinchisida mavjud emas.

Zooleksika bo'yicha eng kata semantik tadqiqotlar, tabiiyki, L.V.Voytik qalamiga mansub. U obrazli ko'chma ma'nolarga ega bo'lgan hamma zoonimlarni tizimlashtirishga harakat qilib ko'rgan va ularni 4 kategoriyaga taqsimlaydi:

- 1) okkozional metaforik tavsiflar;
- 2) turg'un metaforik tavsiflar, ularning leksik ko'chma ma'nosi aniqlanmagan;
- 3) ma'lum turg'un ko'chma leksik ma'nolarga ega bo'lgan metaforik tavsiflar;
- 4) tavsiflovchi funksiyani bajarmasdan, odamga nisbatan erkalash, mayl, nafrat ifodalaydigan desemantizatsiyalashgan metaforik tavsiflar¹.

O.A.Rijkinaning ishida rus va ingliz tillarida zoomorfizmlar semantikasi tizimli bayon etilgan. Muallif "ahmoq", "qo'pol" va boshqa tipdagi umumiy semantik komponent bo'yicha funksional-sinonimik guruhlarini ajratib olgan va tahlil qilgan. T.V.Pisanova ispan tilida zoomorfizmlarning semantik strukturasini va funksional-kommunikativ xususiyatlarini va uning lotin amerika variantlarini tadqiq etgan.

1.3. Atamalarda motivatsiya tushunchasi

Taraqqiyotning keyingi davrlarida kishilar ongining o'sib borishi bilan bog'liq holda ularning narsa va xodisalarga va umuman, ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabatlari tubdan o'zgardi. Bu narsa til hodisalarida ham o'z

¹ Писанова Т.В. Семантическая структура и функционально-коммуникативные свойства зооморфизмов испанского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 1989. - 22 с.

in'ikosini topmoqda. Narsa va hodisalami atashda ularning ayrim xususiyatlariga asoslanadiki, bu hodisa motivatsiya (fransuzcha "asos", "sabab" ma'nosidagi so'zdan) deyiladi. Motivatsiya - asoslanish, masalan, kungaboqar - doimo kunga (quyoshga) boqib o'sadigan o'simlik, kurak - biror narsani kurash uchun ishlatiladigan ish quroli, to'rtburchak - to'rtta burchakka ega bo'lgan shakl va hokazo.

O'zbek tilshunosligi atamalarida motivatsiya hodisasini aniqlashda A. Hojievning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"ga asoslandik. Lug'atda o'zbek tilining o'zida yaratilgan hamda qator boshqa tillar uchun umumiy bo'lgan 1500 ga yaqin atamaning izohi berilgan. Mazkur atamalarning 158 tasi faqat o'zak-negizdan iborat bo'lib, 233 tasi yasovchi qo'shimchalar orqali yasalgan, qolganlari - 1 qo'shma so'z va so'z birikmalaridir. Ko'rinadiki, o'zakdan iborat atamalar lug'atning juda oz qismini tashkil etadi. Buni nomlanayotgan voqea- hodisaning mohiyatini o'zakdan iborat atamadan ko'ra, yasovchi qo'shimchalar orqali yasalgan yoxud qo'shma, yoki birikma atamalar orqali ochib berish imkoni kengroqligi bilan izohlash mumkin. Chunki, "atama fan, texnika va boshq sohaga oid narsa xahidagi tushunchani aniq ifodalaydigan ... so'z yoki so'z birikmasidir.

Kuzatishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'zakdan iborat atamalarning aksariyati ular atamalashuvidan oldin umum iste'molda ishlatib kelingan, o'zbek tilining o'z so'zlari bo'lgan ot, son, o'zak, negiz, kesim arab tilidan o'zlashgan asos, sifat, fe'l; fors-tojik tilidan o'zlashgan ovoz, ravish, gap, rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan pauza, period ana shular jumlasidandir. Mazkur so'zlarning ma'nolaridan biri atama sifatida asos qilib olingan.

Masalan, o'zbekcha ot so'zining kishining shaxsiy ismi ma'nosidan tashqari yakka tuyoqlilarga mansub sut emizuvchi yirik ish-ulov hayvoni; ot boshiga o'xshatib yasalgan shaxmat donasi; unvon, mansab, nom; zot, urug'; shuxrat, dong kabi qator ma'nolari ham borki, bu leksema o'zbek tilshunosligi atamasi sifatida qabul qilinayotganda uning faqat "nom" tushunchasi inobatga

olingan. Ayni shu holat predmetlik ma'nosani anglatadigan so'zlar turkumini ifodalovchi grammatik atamasining asosi, motivi bo'lib qolgan. A.Hojiev lug'atidan o'rin olgan o'zakdangina iborat 158 atamadan 102 tasining motivi yuqoridagi kabi aniq sezilib turadi. Yasovchi qo'shimchalar orqali yasalgan aniqlovchi, bog'lovchi, jonlantirish, qo'shma so'z, so'z birikmasi, asliy sifat bo'laklarga ajratilmaydigan gap kabi atamalarning motivi esa o'z-o'zidan ma'lum.

1.4. Dunyoning til manzarasi tushunchasi va uni o'rganish prinsiplari

Tilda ma'daniyatning ma'lum bir kodi joylashgan bo'ladiki, uni faqat shu ma'daniyatning sohiblari yoki shu ma'daniyatning timsollari arsenali bilan tanish kishilar yaxshi tushunadilar. Fayna vakillarini ataydigan leksik birliklar, ya'ni hayvonlarning nomlar (zoonimlar) eng qadimgi va eng ko'p tarqalgan so'zlardan biri sanaladi. Odamlar va hayvonlar o'rtasida qardoshlik mavjud bo'lganligiga odamlar azaldan ishonib kelganlar. O'sha davrlarda bunday ishonch totem shaklida ifodalangan. Hayvonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lganlar: biron bir hayvon qabilaning yoki avlodning timsoliga aylangandan keyin, uni o'ldirish yoki ovqatga solish mumkin bo'lmagan. Odam o'z yurish-turishini, tashqi ko'rinishini, hissiyotlarini, holatlarini tavsiflashga harakat qilish jarayonida, eng avvalo, o'ziga eng yaqin va o'xshash bo'lgan narsa - hayvonat olami bilan qiyoslab ko'rishga intilgan. Ehtimol, aynan shuning uchun turli xalqlarning tillarida tarkibida zoonimlar bo'lgan ko'plab o'xshatishlami, maqollami, matallami va frazeologizmlami topish mumkin¹. Aynan shu sababdan tushunarliki, biron-bir tilda befahm va sekin harakat qiladigan hayvon sifatida, masalan, sigirni tavsiflaydigan frazeologizm yoki o'xshatish boshqa, ya'ni madaniyatida sigir ilohiy hayvon sanaladigan xalqqa tushunarli bo'lmaydi. Olamning til manzarasi tushunchasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan ikkita har xil g'oyadan iboratdir:

1) olamning til manzarasi "ilmiy" manzaradan farq qiladi (ushbu ma'noda "olamning soda manzarasi" atamasi ham qo'llanadi);

¹ Арутюнова Н.Д. Метафора // ЛЭС1. 2002. - С. 296-297.

2) har bir til borliqni o'zgacha, boshqa tillardan farqli ravishda aks ettiradigan o'z manzarasini "chizadi".

Til va madaniyat aloqasi keyingi vaqtda faol o'rganilmoqda. Ayniqsa XX asrning oxirida til va ma'daniyatning bir-biri bilan aloqasi muammosi zamonaviy tilshunoslikda eng dolzarb muammolarga aylandi. Hozirgi paytda "olamning til manzarasi" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Professor E.S.Yakovleva tomonidan taklif qilingan yana bir ta'rifni keltiramiz: «Olamning til manzarasi deganda, borliqni idrok etishning tilda qayd qilingan va shu til jamoasi uchun xos bo'lgan sxemasi tushuniladi. Shunday qilib, olamning til manzarasi bu - til prizmasi orqali o'ziga xos olamni ko'rishdir¹. Ma'lumki, til tomonidan ifodalangan olamning obrazi manzarasi olamning ilmiy manzarasidan farq qiladi. Masalan, kundalik o'zbek so'zlashuv tilida, ilmiy bilimlarimizga qaramasdan, quyosh chiqdi, quyosh botdi, quyosh yuqoriga ko'tarildi deymiz. Ilmiy jihatdan allaqachon, ma'lumki, Er sayyorasi Quyosh atrofida aylanadi, ammo aksincha emas.

Har bir tildagi zoomorfik metafora, zoomorfik o'xshatish, zoofrazeologizm va zoomaqollar olamning milliy manzarasi komponentlaridan biri sanaladi, eng sxematikligi va konservativligi bilan ajralib turadi. Bu holat ma'daniy axborotni avloddan - avlodga etkazib berishga, milliy tasavvurlarning izchilligi va turg'unligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Olamning til manzarasining tadqiqi har xil tillar o'rtasida taqqoslashni taqoza etadi. Ko'pincha tilshunoslar ikki yoki undan ko'proq tillardagi birliklarini tadqiq qilish va taqqoslash bilan band bo'lmoqdalar. Zoomorf mavzulari ayniqsa e'tiborni ko'proq jabl qilmoqdalar.

Zoonimlar har xil hayvonlar to'g'risida odamlarda shakllangan tasavvurlarni aks ettiradigan so'z-timsollar razryadiga osongina o'tadilar, masalan, tulkidek ayyor, quyondek qo'rqoq, chumoliday mehnatkash. Ko'p hayvon nomlari tilning turg'un metaforalari bo'lib qolganlar. Bu nomlar

¹ Акимусшкин И.И. Мир животных: Рассказы о домашних животных. - М.: Молодая гвардия, 1981.-238 с.

odamning xususiyatlari va sifatlarini anglatadilar: masalan, tulki - ayyor va tilyog'lama odam, ayiq - qovushmagan, lavang odam haqida va sh.o' . Zoomorfik tizimlarning o'xshashligi turli xalqlarning umumiy tarixiy o'tmishi haqida guvohlik berishi mumkin. Metaforaning yaralish asosida gapiruvchilarning hayvon to'g'risidagi real tasavvurlari emas, mifik tasavvurlari yotadi. Demak, olamning metaforik manzarasi olamning ilmiy manzarasidan emas, aynan til manzarasidan impuls oladi. Aynan shuning uchun ham zoomorf tavsiflar har xil tillarda bir-biridan farq qiladi, buning oqibatida nominativ birliklar sifatida aynan bir xil zoonimlar asosida paydo bo'lgan metaforalar yoki o'xshatishlar ham har xil ma'daniy-til konnotatsiyalarini qabul qilishlari mumkin.

Bunday vaziyatlarda zoomorfizmlar olamning kontseptual manzarasida baholash funksiyasini amalga oshirishga xizmat qiladigan o'ta muhim obrazli vositaga aylanadi. Bunda ijobiy va salbiy, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, aql va aqlsizlik, mehnaysevarlik va dangasalik, aqloqiylik va aqloqsizlik tushunchalari har qanday madaniyatga, har qanday ijtimoiy tizimga xosdir. Shu bilan bir qatorda har bir til sohibining ongida olamning obrazi til universalialarining va milliy olamni ko'rishni aks ettiradigan til belgilarining o'ziga xos qo'llanish majmui orqali yaratiladi.

Olamning til manzarasida xalqlarning olamni tushunishi belgilar usulida taqdim etiladi, borliqning xalqlar uchun muhim bo'lgan parchalari qayd qilinadi. Bunda til ifodasi vositalarining o'zaro aloqasida ob'ektiv olamning o'zi ham, u to'g'ridagi fikr va baholovchi tavsiflari ham, mazkur sotsium a'zolari tomonidan unga nisbatan sub'ektiv munosabat ham taqdim qilingan bo'ladi.

«Hayvonot olami» semantik maydonida uy hayvonlarining nomlari eng faol ishtirok etadi: burro "eshak", cabra 'echki', cerdo/guarro /puerco 'cho'chqa', mulo(a) 'xachir', perro 'it'. O'jarlik va ahmoqlik to'g'risida eshak va xachirga birkirib qo'yilgan tasavvurlar ko'pgina boshqa tillardagidek, ispan tilida ham, "aqlsiz, o'jar odam" bahosini hosil qiladi: ser un burro/mulo, mas terco que una mula. Aqldan ozgan yoki aqlsiz odam, ispan til ongida echkiga

o'xshatiladi, aftidan nigohining jiddiyligi va kutilmagan sakrashlari tufayli: estar como una cabra.

Qiyoslanayotgan tillarning kesikasi va frazeologiyasida hayvonlarning tur nomlari ham, rod nomlari ham o'z aksini topadi: animal, bestia, bicho, fiero hayvon, yirtqich, mol), bunday holatda har xil semantik komponentlar ularda voqelanadi. Masalan, «animal» va «bestia» leksemalari etik baho «qo'pol, madaniyatsiz» bilan va intellektual baho «nodon» bilan bog'langan (ser un animal/ un(a)bestia). «Fiero» jahldor, qiziqqon odamlarni tavsiflaydi (ser una fiero), hamda odamning kasbiy sifatlarini ijobiy baholash uchun foydalaniladi (ser un fiero en algo).

Baholovchi nomlashlarni hosil qilishda hayvonlar bolalarining nomlari ham ishtirok etadi. Qiyoslanayotgan xalqlarning mentalitetida ular yosh tavsiflari bilan bog'lanib ketadi: renacuajo (so'zma-zo'z. 'qurbaqa bolasi', ko'chma. 'yosh'), borrego (so'zma-zo'z. 'qo'zichoq', ko'chma. (go'l, royish odam'), chota (so'zma- zo'z. uloq, ko'chma. 'engil, aqldan ozgan odam').

II BOB. ISPAN, FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ZOOMETAFORALAR VA ZOOO'XSHATISHLARNING QIYOSIY- TIPOLOGIK TAHLILI

2.1. Hayvon nomlarining iboralarda qo'llanishi

Leksikologiyaning asosiy muammosi murakkab birliklarni, keng ma'noda atamani (qo'shma so'zdan maqolga qadar hamma turdagi iboralarni) inventarizatsiyalash, tahlil qilish va tasniflashdan iboratdir. Kontrastiv aspektda, shuningdek, tillarni tasvirlash uchun ham, o'qitish va tarjimani yengillata oladigan amaliy vositani tayyorlash uchun ham bu masala yanada murakkab va, ayni paytda, zarur va muhim maqomiga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda bir tilli iboralar va maqollar to'plamlari mavjud. Bu to'plamlarda tasnif mavzular bo'yicha yoki tayanch so'z bo'yicha amalga oshirilgan. Tematik tasnif esa yetarlicha taqdim etilmagan: mavzular semantik kategoriyalar bo'lib, bir mavzudan ikkinchisiga o'tganda o'zgarib turadi. Bu holat sof semantik tasnifni amalga oshirishda muammo tug'diradi; mavzular umumiydan (masalan, tabiat, insoniy munosabatlar) xususiy (masalan, movut va kiyim) tomon boradi; ular batafsil emas, bu holat tasniflash tushunchasining o'ziga ham ziddir va, demakki, aniq konsultatsiya omillarini taklif qilmaydi.

Tematik tasnif ko'pincha tayanch so'z bo'yicha tasnif bilan birlashib ketgan, ayrim holatlarda oydinlashtirish uchun indeks qo'shib qo'yilgan yoki aralash tartibda, masalan, so'zning tematik tasnifga kiritilishi cle so'ziga havola qilinadi, yoki bosh so'zlar bir vaqtning o'zida ham tematik va ham leksik bo'ladi (masalan, cadeau: A cheval donne on ne regarde pas les dents et Les petits cadeaux entretiennent l'amitie).

Boz ustiga bu to'plamlar mukammallikni maqsad qilib qo'yadi va faol ham, passiv ham kompetentiyada bo'lmagan onda-sonda uchraydigan frazeologik birliklarni inventarizatsiya qiladilar. Demak, asosan didaktik perspektiva uchun yagona tanlab olishni joriy etish vaqti etib kelgandek tuyuladi.

Kontrastiv sohada, maqollar to'g'risidagi so'nggi ayrim ishlarda tematik tasnif himoya qilingan: «fransuz paremiyasining ma'nosini va mavzusini imkoni

boricha aniq ifodalaydigan ispan paremiyasini aniqlash uchun », « biz bir semantik vositaga egamizki, u semantik g'oya va mavzuni to'raligincha bizga osonlashtirib beradi: masalan, Quand le chat n'est pas là, les souris dansent sous /autorite/ yoki A bon chat bon rat paremiyalarida aktantlar omili va mushuk to'g'risidagi "aqliy obraz" e'tiborga olinishi zarur. Boshqacha aytganda, zoonimlarni anglatuvchi so'zlarga qaytib kelish kerak.

Ma'lumki, bu qaytib kelish birgina index bilan chegaralanishi mumkin emas, u faqat mavzularga jo'natadi. So'zlar bilan assotsiatsiyalanishi kerak bo'lgan narsa sof aqliy bo'lmasdan, lingvistik (semantik va sintaktik) bo'lishi lozim.

Semantik nuqtai nazardan, frazeologik birliklarni asosli bir belgisi bo'yicha guruhlariga ajratgan holda, strukturalash haqida gap boradi: yuqorida keltirilgan ikkita maqol uchun aynan bir belgi (yovvoyi kemiruvchi) mushuk bilan assotsiatsiyaga kirishgan. Bu yerda qo'llanishi mumkin bo'lgan eng yaxshi leksik semantik model bu - stereotip modelidirki, u frazeologizm tomonidan alohida foydalanilgan tipik va zarur bo'lmagan belgilarni o'z tarkibiga kiritadi. Shu tarzda tillar o'rtasidagi qiyoslash, har bir tildagi ma'noning tarkibiy qismlarigacha etib borib, ko'p tomonlama charxlanadi.

Bir tomondan, maqollar va iboralarni bir-biridan ajratmaslikki e'tibor qaratilsa (iboralar to'plamlari asosan maqollarni kiritganlar, ammo teskarisi bo'lmagan), boshqa tomondan, sodda so'zlarning (masalan, Un tel est un âne/Es un burro, canard « sucre trempé », anguille « gâteau ») va derivatlarning (fourmiller/hormigear) ma'nolari bilan aloqa bog'lanadi. Bu ma'nolar frazeologiyadagi belgilarday bir xil belgilar tomonidan asoslangan bo'ladi: shu tarzda bu belgilar iboralarga kiritiladi; kompozitsiya va derivatsiya (morfoligik va semantik) har xil voqelanadigan semantik belgilarning umumiy matritsasiida kelib chiqadi.

Sintaktik nuqtai nazardan, iboralarni sinflar (otlar, sifatlar, fe'llar, frazalar) bo'yicha tartibga solish kerak. Bu holat iboralarni chegaralash bilan bog'liq qiyinchiliklarsiz bo'lmaydi. Masalan, inson mavzuli fe'l gumhi mettre là

charrue avant les bœufs (II a mis la charrue avant les bœufs) va maqolli frazaga II ne faut pas mettre la charrue avant les bœufs ; ot tour de cochon ve fe'l jouer (a qn) un tour de cochon ; yoki yana, sifat depreciatif de cochon fige tour oti bilan (un tour de cochon = un mauvais tour, un sale tour).

